vositalar orqali aniq ifodalansa, o‘zbek tilida kontekstning roli ustunlik qiladi. Ingliz badiiy matnlarida temporal siljishlar va eksperimental narrativ usullar kengroq uchrasa, o‘zbek adabiyotida metaforik va kontekstual qo‘llanishlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu farqlar har ikki tilning tipologik va madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida zamon deyksisining lingvopragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi. Natijalar ingliz tilida zamon deyksisi asosan rivojlangan grammatik vositalar va diskurs markerlari orqali aniq ifodalanishini, o‘zbek tilida esa kontekst va voqea bayonining izchil tizimi yetakchi rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Har ikkala tilda zamon deyksisi voqealar ketma-ketligini tashkil etish va muallif pozitsiyasini ifodalashda umumiy pragmatik funksiyalarni bajaradi. Shu bilan birga, ingliz badiiy adabiyotida temporal eksperimentlar kengroq uchrasa, o‘zbek adabiyotida an’anaviy bayon orqali psixologik chuqurlik yaratiladi. Tadqiqot xulosalari badiiy tarjimada temporal vositalarning funksional ekvivalentligini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). https://doi.org/10.5526/esj23

(2). Yule G. The study of language. Cambridge university press, 2022.

(3). Fillmore C.J. Deixis and context. Context in language learning and language understanding. 1998, c. 27–41.

(4). Lyons A. Self-presentation and self-positioning in text-messages: Embedded multimodality, deixis, and reference frame: дис. Queen Mary University of London, 2014.

(5). Levinson S.C. Deixis. The handbook of pragmatics. 2006, c. 97–121.

(6). Comrie B. Tense. Cambridge university press, 1985, т. 17.

Halimova Umriya To‘lqinovna (Navoiy davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi 1-kurs magistranti)

ANVAR OBIDJON QISSALARIDA QO‘LLANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Anvar Obidjonning qissalarida frazeologik birliklar lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tadqiqotda frazeologizmlarning ijtimoiy va psixologik funksiyalari yoritildi. Frazemalarning denotativ ma’nosi saqlangan holda konnotativ qatlamlari o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *qissa, idioma, frazema, badiiy matn, aktual birlik, emotsional fon, ekspressiv bo‘yoq.*

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПОВЕСТЯХ АНВАРА ОБИДЖАНА

Аннотация. *В данной статье фразеологические единицы в повестях Анвара Обиджона были проанализированы с лингвопоэтической точки зрения. В исследовании освещены социальные психологические функции фразеологизмов. Коннотативные слои фразем были изучены при сохранении их денотативного значения.*

Ключевые слова: *повесть, идиома, фразема, художественный текст, актуальный фон, экспрессивная окраска.*

THE LINGUOPOETIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGIC UNITS IN ANVAR OBIDJON’S NOVELLAS

Annotation. *In this article, the phroseological units in Anvar Obidjon’s stories were analyzed from a linguopoetic point of view. The study highlights the social and psychological functions of phraseological experissions.The connotative layers of the phraseology, while proses were examined while preserving their denotative meanings.*

Keywords: *story, idiom, phraseme, literary text, relevant background, expressive coloring.*

Kirish. Badiiy asar ta’sirchanligini oshirish uchun unda qo‘llanadigan tasviriy vositalarga alohida e’tibor qaratish lozim. Badiiy matn ijodkorning dunyoni, voqelikni obrazli – estetik idrok qilish mahsuli sifatida paydo bo‘ladi. Badiiy matnning badiiy butunlik sifatida o‘quvchi tomonidan tushunilishi, albatta, ijodkorning murakkab estetik faoliyati natijasidadir. Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi sohani – “lingvistik poetika” – “lingvopoetika” deb nomlash filologiya ilmida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yaratilgan har qanday badiiy asarning til xususiyati asardan ko‘zlangan maqsad uchun alohida ahamiyatga ega. “Badiiy asarni lingvistik jihatdan o‘rganar ekanmiz, matnda til qurilishi, leksemalarning semantik jihatdan o‘zaro birliklarga bo‘linishi, aktuallashgan til vositalarining

aniqlanishi muhim tamoyillardandir... Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatni ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin" [1; 156-b.]. Ana shunday aktuallashgan til vositalaridan biri frazeologik birliklarning badiiy matn tarkibida qo'lla-nilishi asarning ekspressiv va emotsional mazmunini yanada oshiradi. Sujetning emotiv va estetik jihatdan boy bo'lishini ta'minlovchi elementlardan biriga aylanadi. Tilshunos olim Sh.Rahmatullayevning fikricha, "Frazema til qurilishining lug'at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo'lib, bittadan ortiq leksemaning o'zaro semantik-sintaktik birlashuvidan tarkib topgan bo'ladi" [2;216-b.]. Shunga ko'ra u segment birlik deyiladi, sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gap-shaklga teng bo'lib, odatda, normat,iv va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihati bilangina emas, mazmun jihati bilan farq qiladi. Leksemaga qaraganda frazeologik birlikda ta'sirchanlik yuqori darajani hosil qiladi. Shuning uchun yozuvchi fikrini oddiy so'z bilan emas, frazeologik birlik vositasida yetkazishga harakat qiladi. Professor Sh.Rahmatullayev yana shuni ta'kidlaydi: "Frazema ikki va undan ortiq leksemaning o'zaro semantik-sintaktik bog'lanib, umumlashma ko'chma ma'no kashf etishi bilan yuzaga keladi va matnda tasviriylikni kuchaytirib, o'ziga xos murakkab semantik yadroni yuzaga keltiradi" [2;218-b.]. Demak, o'zbek adabiyotidagi katta-kichik nasriy va she'riy asarlar matnida frazeologik birliklarning qo'llanilishi o'quvchi voqeylikni ta'sirchan va ifodali tushunishini ta'minlashga xizmat qiladi. Buni biz anvar Obidjon asarlari misolida tahlil qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek bolalar shoiri va yozuvchisi Anvar Obidjon asarlarida tilshunoslikda aktual bo'lgan turli tasvir vositalarini uchratish mumkin. Ushbu vositalar yozuvchining obraz yaratishida nafaqat tasvir, balki u orqali ochiladigan ruhiy holat, emotsional kayfiyat, estetik zavq ulasha olishi bilan ham qimmatlidir. Tasviriy vositalar, frazeologik birliklar, metaforik ishoralar matnida o'ziga xos signifikativ vazifa bajaradi va lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Anvar Obidjon qissalari, asosan, bolalarga bag'ishlanganligi bois undagi asosiy semantik yadroni to'polonchilik, shumlik, ahillik, xayolparastlik, do'stlik, tinib-tinchimaslik kabi semalar tashkil etadi.

Yozuvchining "Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?" nomli qissasida ham tilning turli tasvir vositalaridan mohirona foydalanilgan. Jumladan, qissada qo'llangan frazeologik birliklar asardagi tasviriylikni oshirish bilan birga o'quvchiga estetik zavq beradi. Qahramonlarning ijtimoiy fonda ichki kechinmalarini aniqlik bilan ochib berishda pragmatik vazifani bajaradi. Qissa matnida uchraydigan paremologik birliklar o'zbek tilining frazeologik sistemasida shakllangan umumxalq ma'nolarini muallif konteksda yuzaga chiqishiga zamin yaratadi.

Anvar Obidjonning "Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?" qissasida bosh qahramon Mo'ttivoyning endi 6-sinfga ko'chgan va ta'tilga chiqqaniga besh kun bo'lganidan boshlanadi. Asar qahramoni o'n uch yoshdagi bolalarga xos o'yinqaroqlik, to'polonchilik, shumlik, tinib-tinchimaslik, xayolparastlik kabi xarakter xususiyatlari xos. Buga asarni mutolaa qilish va lingvopoetik tahlil jarayonida guvoh bo'ldik.

Tahlil va natijalar. "Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?" qissasining "boshlanishida boshidan g'alva arimay turishi" [3;4-b.] qahramonning bolalarga xos to'polonchi va sho'xligidan darak beradi. Asar qahramoni qaysi ishni boshlamasin, har doim muammoga duch kelaveradi. Qissa davomida Mo'ttivoyning yarim odam, yarim it qiyofasiga do'nishi xarakter jihatdan murakkab konnotativ ma'no tashiydi. Asar matnida uchraydigan "*Kechpishar toshnokning ustida chaqchayip turgan hakka Alpomishga ko'p yomonliklar qilgan Surxayl kampirga o'xshab ko'rindi-yu, unga tish qayraganimcha kamondan o'q uchirdim...*[3;6-b.], gapida "tish qayramoq" iborasi ishlatilgan. Ushbu somatik ibora asar qahramonining hakkaga bo'lgan salbiy munosabatini, ya'ni yomon ko'rishini ifodalagan. Shu o'rinda, yozuvchi "Alpomish" dostoni qahramoni Alpomishning Surxayl kampir bilan o'rtasidagi ziddiyatni ham esga oladi. Albatta, ushbu o'rinda qo'llanga "tish qayramoq" iborasi aynan qahramonning xarakterini ochib berishda yozuvchi tomonidan mahorat bilan ishlatilgan deyish mumkin. Yana bir o'rinda "*Menga ko'zi tushgan odam borki, quloq-burunli ustunga aylanib, joyida dong qotib qolaverdi* [3;6-b.]. Ushbu jumlada esa "dong qotmoq" iborasi orqali qahramonning xarakteri yanada yorqinroq ochib berilgan. Qahramonning haddan ortiq sho'xligi, atrofdagi insonlarning unga bo'lgan munosabatini, ya'ni hayron qolishini ifodalab bergan. Shuningdek, qahramon haqida kitobxonning tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda,"*Boshimga qop-qop kulfat orttirganimni payqam, o'rnimdan turib-la qo'chqorning iziga tushdim*" [3;7-b.] gapida "iziga tushmoq" iborasi keltirilgan. Ushbu ibora "izlamoq" leksemasi o'rnida ta'sirchanlikni oshirish maqsadida qo'llanilgan. "Iziga tushmoq" iborasi "Zimdan yurib butun xatti-harakatini ta'qib qilmoq" degan ma'noni ifodalaydi [4;110-b.].

Qissada salbiy xarakterga ega Aldar Xoldor nomli qahramonning tasvirlanishi, asarning semantik jihatdan boy bo'lishini ta'minlaydi. Ya'ni, uning tilidan keltirilgan "*Demaslikka demadingiz-u baribir ko'-*

zingiz meni yeyman" *deb turibdi. Odamni yuragini bunaqa qon qilavormang-da*, [3;24-b.] *Yo'ldosh aka*! Ushbu o'rinda "yuragini qon qilmoq" iborasi ekspressivlik jihatdan hissiy effektni yaqqol ko'rsatadi. *Yuragini qon qilmoq* – diltang bo'lmoq, ziq bo'lmoq [4;276-b.] ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu ibora asar qahramoni Aldar Xoldor fikrini tinglovchiga yetkazishda ekspressivlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Asarda muallif tomonidan aytilgan ushbu jumlada ham qahramonni ruhiy holati ibora vositasida ko'rsatib o'tilgan: "*Aldar Xoldorning paytavasiga qurt tushib, bo'pti, Rahimboy, narigi fermerda ham bir ishim boridi, deya tez-tez odimlab uzoqlasha boshladi*". Ushbu jumladagi qahramon holatini ko'rsatuvchi "paytavasiga qurt tushmoq" iborasi juda qattiq qo'rqmoq, dovdiramoq, haddan tashqari xavotirga tushmoq ma'nolarida qo'llangan. Ushbu iboraning qo'llanilishi muallifning paremiologik birlikdan konnotativ ma'noni kuchaytirishda foydalanishida lingvopoetik yaxlitlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Qissada matnida uchraydigan "Ip boylamay o'ynatmoq", "odamni kuydirmoq" [3;53-b.] iboralari ijtimoiy mazmunga ega bo'lib, aldab-suldab, ko'nglini ovlab, chalg'itib, o'z yurig'iga yurgazmoq, keyingisi esa ayanchli fojiali ahvolga solmoq kabi pragmatik semalarni anglatadi. Bu frazemalar orqali muallif nafaqat voqeani tasvirlaydi, balki ijtimoiy jarayonlarni ko'rsatuvchi lingvopoetik vositalarni ham qo'llaydi. Anvar Obidjon badiiyatida frazeologizmlar, ko'pincha, sodda, xalqona, bir o'qigandayoq anglaniladigan shaklda keladi. Bu uning matnlarini tabiiy, og'zaki nutqqa yaqin va poetik mazmun jihatidan boy bo'lishini ta'minlaydi. Muallifning tilida frazeologizmlar nafaqat qolip, balki asosiy ma'no yaratuvchi vosita maqomiga ega bo'ladi. Badiiy matnning ichki ohangi, qahramonlarning emotsional holati, ijtimoiy fan aynan frazeologizmlar qo'llanilishida maydonga keladi.

Anvar Obidjonning "Oddiy ayriliq yoxud eng bokira sevgi ertagi" [5;120-b.] qissasi ham emotsional jihatdan boy bo'lib, o'quvchida badiiy zavq uyg'otadi. Qissada keltirilgan frazemalar uning badiiy-estetik mohiyatini belgilovchi asosiy lingvopoetik mexanizmdir. Ular matnning semantik strukturasini boyitadi, qahramon ruhiyatini aniqlashtiradi, voqealarning ijtimoiy mazmunini chuqurlashtiradi. Tilshunoslik nuqtayi nazardan qaraganda, bu aktual vositalar semantik boyish, konnotativ ma'no yuklash va idiolektga xos umumlashtirilgan obrazlar tizimini namoyon etadi.

Muallifning "Oddiy ayriliq yoxud eng bokira sevgi" qissasida uchraydigan "yuragi bezillab qolgan", "ko'ngli yozilmoq" [5;125-b.] kabi iboralarning qo'llanilishi, qahramonning subyektiv hissiyotini, ruhiy emotsional holatini ko'rsatadi. Konteksda ibora voqelikning jiddiyligini bildiradi va uni kuzatuvchi o'quvchi beixtiyor qahramonga nisbatan hamdardlik hissini tuyadi. Bu o'rinda frazeologizmning semantik tarkibi kengayib, tasviriylik vositasidan ko'ra voqeaning estetik jihatdan ta'sir kuchini oshiradi.

Qissada keltirilgan "ko'ngli yozilmoq" iborasi mana shu qiyinchiliklardan bir zum bo'lsa ham tin olish, yoddan chiqarish kabi semalarini ifodalaydi. "Boshi osmonga yetmoq" ekspressivlikning yuqori darajasi bo'lib, muallif bu orqali qahramoning subyektiv hissiyotini ifodalaydi va kuzatuvchida ham qahramonga nisbatan ko'tarinki kayfiyat paydo bo'ladi. Mazkur iboralar qissada alohida belgi sifatida emas, balki bir butun semantik zanjirning bo'laklari sifatida qo'llanadi. Ularni bog'lab turuvchi asosiy omil–konteksual semantika, ya'ni, frazeologizmlarning matn ichida ma'no kuchayishi va voqelikni ifodalashdagi funksional o'rni shu jihatdan qissada frazeologizmlarni nafaqat badiiy tasvir vositasi sifatida, balki tilning dunyoqarash ifodasi sifatida ham qo'llaydi. Har bir frazeologik birlikning semantik yadrosi saqlangan holda konnotativ ma'nosi kuchayadi.

Xulosa. Aytish mumkinki, Anvar Obidjon asarlarida ifodalangan tilning tasviriy vositalari, jumladan, frazeologizmlar oddiy so'zlarga nisbatan voqelikni ta'sirchan, obrazli ifodalashda muhim. Ular asar tilini jonli tarzda voqelantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, ijodkor asarlarida qo'llangan frazeologizmlar voqelikni kitobxon xotirasida tez, oson va jonli tarzda saqlanib qolishida ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2008.

(2). Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "Universitet", 2005.

(3). Anvar Obidjon. Oddiy ayriliq. "Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?" qissasi. Gafur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2019.

(4). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, "Ўқитувчи", 1978.

(5). Anvar Obidjon. Oddiy ayriliq. "Oddiy ayriliq yoxud eng bokira sevgi" qissasi. G'.G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2019.